

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

DAVLATOV SUXROB SAYITJONOVICH

OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI
TA'MINLASHDA TA'LIM SIFATINI BAHOLASHNING MARKETING
TADQIQOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.11 – Marketing

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of of dissertation abstrast of Dostor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Davlatov Suxrob Sayitjonovich

Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatini
baholashning marketing tadqiqotlarini takomillashtirish..... 3

Давлатов Сухроб Сайитжонович

Совершенствование маркетинговых исследований оценки качества
образования в обеспечении конкурентоспособности высших учебных
заведений..... 29

Davlatov Sukhrob Sayitjonovich

Improvement of marketing research on assessment of the quality of education to
ensure the competitiveness of higher education institutions..... 57

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of rublished works..... 61

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.I.72.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

DAVLATOV SUXROB SAYITJONOVICH

OLIY TA'LIM MUASSASALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI
TA'MINLASHDA TA'LIM SIFATINI BAHOLASHNING MARKETING
TADQIQOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH

08.00.11 – Marketing

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Iqt3314 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Xamidov Obidjon Xafizovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Nizomov Asliddin Badriddinovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Aminova Maqsuda Saminovna
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/05.05.2023.I.72.05 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "27" mart soat 15⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.:(99865)221-29-14, (998 65) 221-27-07, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (416 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi 11-uy. Tel.:(99865) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "11" mart kuni tarqatildi.
(2024-yil "11" mart dagi 1 -raqamli reyestr bayonnomasi).



B.N.Navruz-Zoda
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash rais o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

D.Sh. Yavmutov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

A.O. Ochilov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar rais o'rinbosari, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta'minlashda ish beruvchilar fikrini hisobga olish, xalqaro raqobatbardoshlik, talabalar qoniqish darajasini baholash, ta'lim sifatini baholashda marketing tadqiqotlarini qo'llash yetakchi o'rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida "inson kapitali" milliy boyligining 64,0 foizini tashkil etadi. Bu ko'rsatkich Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (IHRT)ga a'zo, daromadi yuqori mamlakatlarda 70,0 foiz, o'rtacha darajada yuqori mamlakatlarda 58,0 foiz, quyi daromadli mamlakatlarda 41 foizni tashkil etmoqda. Birlashgan millatlar tashkiloti (BMT)ning 2030 yilgacha mo'ljallangan barqaror rivojlanish maqsadlari konsepsiyasida ham "ta'lim tizimi sifatini baholash jarayoni va vositalarini takomillashtirish mexanizmlarini amaliyotga joriy etish"¹ dolzarb vazifa etib belgilangani nuqtayi nazaridan ta'lim sifatini baholashda marketing tadqiqotlarini amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobat kurashi va top reytinglar yuritilishi oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatini baholashning marketing tadqiqotlaridan samarali foydalanish va takomillashtirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Jahonda yetakchi oliy ta'lim muassasalarida marketing xizmatlarini rivojlantirish, ta'lim sifatini baholash, yangicha ta'lim modellarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalari faoliyatini bozor talablariga moslashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, global ta'lim xizmatlari bozori muhitini yaratish, oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshlik darajasini oshirish, professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini oshirish, oliy ta'lim muassasalarida zamonaviy marketing tadqiqotlarini tatbiq etish, ta'lim sifati va raqobatbardoshligini baholashga yo'naltirilgan marketing tadqiqotlarini olib borish va samaradorligini oshirishga ustuvorlik berilmoqda.

Respublikamizda oliy ta'lim sohasida boshqaruvni isloh qilish, jumladan, oliy ta'lim muassasalari reytingini aniqlash, ta'lim sifatini oshirish, salohiyatli oliy ta'lim muassasalarini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. Xususan, 2026-yilgacha bo'lgan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasining to'rtinchi ustuvor yo'nalishida ham global raqobatbardoshlikka ega oliy ta'lim tizimini shakllantirish bo'yicha „...oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish, salohiyatli oliy ta'lim muassasalarini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash“² bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarini amalga oshirishda, jumladan, oliy ta'lim muassasalari faoliyatida "global raqobatbardosh universitet" (WCU) maqomini shakllantiruvchi "muhim raqobatbardoshlik indikato (KCI) hamda ta'lim xizmatlari sifati ko'rsatkichlari asosida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshshiligini baholash mexanizmi bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb

¹ BMTning 2030 yilgacha mo'ljallangan barqaror rivojlanish konsepsiyasi.
<https://www.un.org/en/conferences/SDGSummit2023>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi" Farmoni (IV-bo'lim, 46-47-maqсадlar) // www.lex.uz.

etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-sonli “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2023-yil 28-fevraldagi PF-27-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 11-iyuldagi PF-5763-sonli “Oliy va o‘rta maxsus ta’lim sohasida boshqaruvni isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-sonli “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 24-dekabrda PQ-60-sonli “Davlat oliy ta’lim muassasalarining akademik va tashkiliy-boshqaruv mustaqilligini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi 467-sonli “Oliy ta’lim muassasalari reytingini aniqlash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma’naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Xorijiy davlatlarda ta’limning iqtisodiyotdagi o‘rni, ta’lim muassasalari raqobatbardoshligining asosiy omillari g‘arb iqtisodchilaridan M.E.Porter, J.V.Rivkin, T.Strayk, J.Taylor, A.Parasuraman, V.A.Zeithaml, L.L.Berri, K.K.Tan, S.V.Kek³ va boshqa xorijiy olimlar tomonidan o‘zlarining fundamental asarlarida keng o‘rganilgan.

Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini baholashda ilg‘or xorij amaliyotidan foydalanish istiqbollari, oliy ta’lim xizmatlari sifatiga ta’sir etuvchi omillar va ularni baholashning ilmiy-metodologik asoslari Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH) davlatlari olimlaridan I.A.Ilichenko, O.V.Saginoval, V.V.Glushenko, L.G.Milyayeva, I.A.Efimova, L.A.Kamalova, E.Raykova⁴ kabi iqtisodchi olimlar

³ Strike T., Taylor J. The Career Persertions of Asademis Staff and Human Resource Dissourses in English Higher Edusation, Higher Edusation Quarterly, 2009, vol. 63, iss. 2, rr. 177–195; Parasuraman A., Zeithaml V.A., Berry L.L., SERVQUAL: A Multirle Sscale for Measuring Consumer Persertions of Servise Quality, Journal of Retailing, vol. 64, Nr 1, s. 12-40, 1988.; Jafari J. Editor’s Page // Annals of Tourism Research. Sresial Number. Ostober/Desember, 1977. r. 8.; Tan K.C., Kek S.W., Servise Quality in Higher Edusation Using an Enhansed SERVQUAL Arroash, Quality in Higher Edusation, vol. 10, nr 1, r. 17-24, 2004.

⁴ Ilichenko, I.A. 2017. The quality of educational services: factors, problems, prospects // Problems of the quality of education. Psychological and pedagogical aspects of the humanitarian culture of society. Management in regional socio-economic systems. Taganrog: Publishing CHOU VO TIUiE, 114-148; Saginova O.V. Competitiveness Indicators of Higher Education Institutions. ETAP:economic theory, analysis, practice. Year 2017, number 4, p. 116-125; Valery V. Glushchenko, Irina A. Presnuhina, and Ekaterina V. Samodelova. (2021). Improvement of service quality in higher professional education by application of lean manufacturing theory in universities. International Journal of Engineering Science Technologies, 5(1), 18-29; Kamalova L. A., Raykova E. The Quality

tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

Ushbu muammolarni o'rganishga O'zbekistonlik olimlardan G.N.Axunova, O.X.Xamidov, B.N.Navro'z-Zoda, A.V.Vaxabov, A.O.Ochilov, A.B.Nizomov, S.S.Gulyamov, M.H.Saidov, A.S.Kucharov, Sh.Qurbonov, G.Qosimov, D.X.Nabiyev, R.Sh.Usmonova, Sh.Sh.Zaxidova, O.S.Qahhorov, A.O.Eraliyev va boshqalarning ilmiy izlanish va asarlarida O'zbekistonda mustaqillik yillarida oliy ta'lim tizimining holati, rivojlanish tendensiyalari, ularni boshqarish va moliyalashtirishning ayrim jihatlari, ta'lim xizmatlari sifati va unda marketing tizimini joriy etish masalalari tadqiq etilgan⁵.

Mazkur tadqiqotlar natijasida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini ta'minlashda muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan holda qo'llanib kelayotgan bo'lsada, ammo iqtisodchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlarda oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifati oshirishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va baholash mexanizmlari masalalarini asoslash bo'yicha marketing tadqiqotlari yetarlicha o'tkazilmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida, shuningdek, 2009-2011 yillarda amalga oshirilgan Erasmus Mundus loyihasi doirasida SCM-TO12BO6-2006 raqamli "UQASE: Oliy ta'lim sifati ta'minlash tizimi" mavzusida, 2014-2017 yillarda amalga oshirilgan Erasmus+ loyihasi doirasida "UNIWORK (Strengthening Career Centres in Central Asia Higher Education Institutions to empower graduates in obtaining and creating quality employment)" xalqaro loyihalarda, A-2-24(24-48) «Mehnat munosabatlari va mahsulot yetishtirishni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirishga oid me'yoriy hujjatlar to'plamini yaratish» (2012-2016 yy.) mavzusidagi amaliy tadqiqotlar ilmiy-texnika loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifati baholashning marketing tadqiqotlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“raqobatbardoshlik” va “raqobat ustunligi” tushunchalari mohiyati va bog'liqligi yoritilib, raqobatbardoshlik darajasini ta'minlashning nazariy asoslari va ularning evolyutsiyasiga tavsilot berish;

and Criteria of Evaluation of Educational Work at the Universities of Russia at the Contemporary Stage. IEJ-ME – Mathematics Education. 2016. № 11 (1). P. 71–7.

⁵Axunova G.N. Ta'lim xizmatlari bozorida marketing faoliyati va uni takomillashtirish: i.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati - T.: 2004. – 45 b.; Xamidov Obidjon Hafizovich, Современная парадигма образования в условиях цифровой и smart-экономики // Современное образование (Узбекистан). 2020. №4 (89).; Navruzzoda B. The quality evaluation of teachers of the tourism and hospitality: a self-marketing approach //International Journal of Management Cases. – 2010. – T. 12. – №. 2. – С. 358-368.; Вахабов А., Иمامов Э. Высшее образование в Центральной Азии. Задачи модернизации. - М. 2007. – 214 с.; Ochilov A. O. The Higher Education Dynamics and Economic Growth: The Case of Uzbekistan //Journal of Management Value & Ethics. – 2017. – T. 7. – №. 2. – С. 46-53.; Kucharov A.S. Tadbirkorlik sohasi uchun oliy ma'lumotli mutaxassislarni tayyorlashda boshkarishning tashkiliy-iqtisodiy omillarini takomillashtirish: i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. - T., 2006. – 40 b.; Nabiev D.X. Ta'lim sohasidagi investitsiyalarni moliyalashtirish masalalari (O'zbekiston o'rta maxsus, kasb-hunar tizimi misolida) i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. – T, 2005. – 24 b; Зохидова Ш. Мировые модели системы образования. //Iqtisodiyot va moliya, №5, 2013, 2-6-6.; Eraliev A.O. Ta'lim tizimining iqtisodiy boshqaruv asoslarini takomillashtirish (o'rta-maxsus, kasb-hunar tizimi misolida). I.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dis. avtoreferati. - T.: 2006. - 24 b.

oliy ta'lim muassasasi faoliyati raqobatbardoshligini ta'minlash va baholashning ilg'or xorij tajribasini o'rganish;

oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari sifatini baholash mexanizmini ishlab chiqish;

mamlakatimizda ta'lim xizmatlari bozoridagi talab asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini 2028-yillargacha bo'lgan prognoz parametrlarini ishlab chiqish;

Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik muhim indikator (KCI) va ko'rsatkichlari ishlab chiqish va ularning hisoblash metodologiyasini asoslash;

Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligi va ta'lim sifatini baholashning marketing tadqiqotlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Buxoro viloyatidagi oliy ta'lim muassasalari, xususan Buxoro davlat universiteti faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmetini oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi va ta'lim xizmatlari sifatini baholashda marketing tadqiqotlaridan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, tizimli tahlil, ekspert baholash, sintez, taqqoslash, statistik tahlil, anketa-so'rovnoma, SWOT-tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish va ekonometrik prognoz usullari qo'llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

“oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi” tushunchasi sog'lom raqobat muhitini yaratish tizimi sifatida “raqobatbardoshlik dastagi” atamasini kiritish orqali takomillashtirilgan;

ta'lim muassasalari, amaliyot va talabalar o'rtasidagi munosabatlar samaradorligini oshirishda ta'lim va o'qitish sifatini baholashdagi bo'shliqlarni bartaraf etishga ustuvorlik berish asosida “xavfni tahlil etish” axborot tizimi asoslangan;

“raqobatbardoshlik dastagi”ni tashqi resurslardan foydalanish ulushiga ko'ra “ichki dastak” ($0 \leq CP_{il} \leq 0,3$), “aralash dastak” ($0,4 \leq CP_{ml} \leq 0,6$) va “tashqi dastak” ($0,7 \leq CP_{el} \leq 1,0$) chegara diapazonlarini kiritish orqali toifalash taklifi ishlab chiqilgan;

mamlakatimizda ta'lim xizmatlari bozoridagi talab asosida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligining 2028-yilgacha bo'lgan prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“raqobatbardoshlik” va “raqobat ustunligi” tushunchalari mohiyati va bog'liqligi yoritilib, raqobatbardoshlik darajasini ta'minlashning nazariy asoslari va ularning evolyutsiyasiga tavsilot berilgan;

oliy ta'lim muassasasi faoliyati raqobatbardoshligini ta'minlash va baholashning ilg'or xorij tajribasi o'rganilgan;

oliy ta'lim xizmatlar sohasida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshlik yondashuvi mohiyatini takomillashtirishga qaratilgan takliflar “60412500-Marketing(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)” ta'lim yo'nalishining malaka talablari mazmuniga singdirilgan;

oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik muhim ko'rsatkichlari (KCI)

ishlab chiqilgan va uning hisoblash metodologiyasi asoslangan;

oliy ta'lim muassasalarning raqobatbardosh marketing strategiyalarni takomillashtirish yo'nalishlari bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida Buxoro davlat universiteti rivojlanish strategiyasi loyihasi taklif etilgan va ilmiy asoslangan;

oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligi va ta'lim xizmatlari sifatini baholashda marketing tadqiqotlari mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi izlanishlarning zamonaviy usul va o'lchash vositalaridan foydalangan holda o'tkazilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o'zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar tahlil uchun olingan ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, o'tkazilgan so'rovnomalarning keng qamrovdagi respondentlar doirasida o'tkazilganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan ijobiy natijalari oliniganligi va amaliyotga joriy etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot jarayonida olingan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakat iqtisodiyotida oliy ta'lim sohasining tutgan o'rnini yaxshilash, ta'lim xizmatlar ko'rsatish sohasini innovatsion rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarining samaradorligini oshirish va ularni amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan maxsus ilmiy-tadqiqot ishlarida manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalar, ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan Buxoro davlat universiteti raqobatbardoshligini ta'minlashning 2030-yilgacha belgilangan prognoz parametrlari oliy ta'lim tizimida marketing tadqiqotlarini amalga oshirishda ta'lim xizmatlari sifatini oshirishga ko'maklashadi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Buxoro viloyat statistika boshqarmasi davlat xizmatlar ko'rsatish sohasini innovatsion rivojlantirish yo'nalishida ilmiy manba sifatida, oliy ta'lim muassasalari tomonidan o'qitiladigan «Iqtisodiyot nazariyasi», «Marketing», «Oliy ta'limda innovatsion faoliyat», «Oliy ta'limda strategik rejalashtirish», «Oliy ta'lim menejmenti» fanlarining fan dasturlari va sillabuslarini takomillashtirish va talabalarga ta'lim berish jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatini baholashning marketing tadqiqotlarini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar asosida:

“oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi” tushunchasi sog'lom raqobat muhitini yaratish tizimi sifatida “raqobatbardoshlik dastagi” atamasini kiritish orqali takomillashtirish bo'yicha taklifi “Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi uchun “Kichik biznes va tadbirkorlik” darsligida kiritilgan hamda “60412500-Marketing(tarmoqlar va sohalar bo'yicha)” ta'lim yo'nalishi malaka talabi mazmun mohiyatiga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martdagi 68-557-son nashr ruxsatnomasi hamda mazkur vazirligining 2024-yil 14-fevraldagi 2/14-2024-3-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur ta'rif bo'yicha xizmat

ko'rsatish muassasalari, oliy ta'lim muassasalarida boshqaruv va moliya tizimi, tadqiqotlar va innovatsiya, ta'lim sifati, inson resurslari, yashil hudud, targ'ibot va hamkorlikni o'z ichiga olgan 6 ta raqobatbardoshlikning funksional imkoniyatlaridan tashqi raqobat muhitidan resurslarni jalb qilish mexanizmi sifatida raqobatbardosh marketing strategiyalarni ishlab chiqish va raqobatbardoshlik darajasi bo'yicha ortda qolayotgan oliy ta'lim muassasalarida uni amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlash imkoniyatini yaratgan. Tadqiqot ishi natijalari "Marketing" fani mazmunini takomillashtirish va o'qitish sifatini oshirishga qaratilgan;

ta'lim muassasalari, amaliyot va talabalar o'rtasidagi munosabatlar samaradorligini oshirishda ta'lim va o'qitish sifatini baholashdagi bo'shliqlarni bartaraf etishga ustuvorlik berish asosida "xavfni tahlil etish" axborot tizimi mexanizmi ishlab chiqish bo'yicha taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 3-iyuldagi PQ-200-son qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar sohasini transformatsiya qilish jarayonlarini jadallashtirish bo'yicha yo'l xaritasi" da kiritilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 14-fevraldagi 2/14-2024-3-son ma'lumotnomasi). Ushbu ilmiy-innovatsion taklifni amaliyotga joriy etilishi natijasida O'zbekistonda oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini ta'lim xizmatlari sifati jihatidan SERVQUAL vositasida baholash va xorijiy tajribalarga asoslangan GAPS-analiz usulini qo'llash evaziga oliy ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash uchun bo'shliqlarni tahlil etish, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish imkoniyati yanada kengaydi, jumladan Buxoro davlat universiteti faoliyati sifatini baholash bo'yicha rahbar-xodimlar o'rtasida o'tqazilgan marketing tadqiqotlar natijasi rahbar-xodimlarning qoniqqanligini yana 26 % gacha oshirish mumkin bo'lgan chora-tadbirlar va tavsiyalar ishlab chiqildi. Natijada, qayta so'rovnoma o'tqazish natijalari rahbar-xodimlarning Buxoro davlat universiteti faoliyati sifatiga qoniqqanlik darajasi 74 % dan 86,7 % oshishiga erishilgani aniqlangan;

"raqobatbardoshlik dastagi"ni tashqi resurslardan foydalanish ulushiga ko'ra "ichki dastak" ($0 \leq CP_{il} \leq 0,3$), "aralash dastak" ($0,4 \leq CP_{ml} \leq 0,6$) va "tashqi dastak" ($0,7 \leq CP_{el} \leq 1,0$) chegara diapazonlarini kiritish orqali toifalash taklifi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Buxoro davlat universiteti faoliyatlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 14-fevraldagi 2/14-2024-3-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur "muhim raqobatbardoshlik ko'rsatkichi" (KCI) dan respublikadagi oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini baholash amaliyotida, jumladan Buxoro viloyati oliy ta'lim muassasalari tomonidan qo'llash evaziga raqobatbardoshlikni ta'minlashning 13 ta omilning ta'sirini aniqlash va tegishli marketing strategik qarorlarni qabul qilish imkoniyati yanada kengaytirgan;

mamlakatimizda ta'lim xizmatlari bozoridagi talab asosida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligining 2028-yilgacha bo'lgan prognoz parametrlari O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Buxoro davlat universiteti faoliyatlarida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 14-fevraldagi 2/14-2024-3-son ma'lumotnomasi). Natijada mazkur prognozlashtirish natijasi oliy ta'lim

muassasalarining bakalavriatiga topshirgan arizalar soni so'ngi 5 yil davomida o'sish surati o'rtacha 4% bo'lgan bo'lsa, keyingi 5 yilda o'rtacha 5-6 foiz o'sish kuzatilishi aniqlab, uzoq muddatli istiqbolda mamlakatda oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini ta'minlashga qaratilgan davlat dasturlarini ishlab chiqishda, shuningdek, mamlakatimizdagi oliy ta'lim muassasalari ta'lim xizmatlari bozoridagi istiqbolli rejalarini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiyaning asosiy xulosa va natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqola, shundan 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 146 betdan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va ilmiy ahamiyati asoslangan, tadqiqotning respublikada olib borilayotgan fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obekti va predmeti, uning ilmiy yangiliklari va amaliy natijalari ochib berilgan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinganligi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.


Dissertatsiya ishining «**Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini ta'minlashning ilmiy-konseptual asoslari**» deb nomlangan birinchi bobida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshlik darajasini ta'minlashning nazariy asoslari va ularning evolyutsiyasi, oliy ta'lim muassasasi faoliyati raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim sifatining mohiyati va zaruriyati, oliy ta'lim muassasasi faoliyati raqobatbardoshligini ta'minlashning ilg'or xorij tajribasi o'rganilgan va ulardan mamlakatimiz amaliyotida ijodiy foydalanish imkoniyatlari tadqiq etilgan. Mazkur bob bo'yicha tegishli xulosalar ham keltirilgan.

Iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari va ilmiy adabiyotlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, "raqobatbardoshlikni ta'minlash" tushunchasi turli mualliflar va tadqiqotchilar tomonidan ko'p marotaba murojaat qilinishiga qaramay, to'liq tushunilmaganligi bilan murakkablashmoqda.

Dissertatsiyada "Oliy ta'lim muassasasi raqobatbardoshligi" tushunchasini subektlarning samarali raqobatbardosh harakatlarni amalga oshirish qobiliyati sifatida ko'rib chiqib, unga "raqobat va global hamkorlikning raqobatbardosh strategiyalarini uyg'unlashtirgan holda asosiy resurslarning noyob kombinatsiyalarini rivojlantirish orqali raqobatda ishtirok etish jarayonida yetakchi mavqega erishish uchun samarali raqobatbardosh harakatlarni amalga oshirish qobiliyati" deb, ta'rif berildi.

"Oliy ta'lim muassasasi raqobatbardoshligi" iqtisodiy tushuncha sifatida


xizmat ko‘rsatish bozorida raqobat strategiyalarini amalga oshirish asosida universitet tuzilmasini barqaror ilmiy, texnologik va ta’limni rivojlantirish ehtiyojlarini qondirish xususiyatiga ega ekanligi aniqlab, uning shakllanishi raqobatbardoshlik konseptual yondashuvlari evolyutsiyasining uchta bosqichlarida asoslab berildi (1-rasm).



1-rasm. Oliy ta’lim muassasalari raqobatbardoshligi konseptual yondashuvlarning shakllanish bosqichlari⁶

Har bir oliy ta’lim muassasasi bir yoki bir nechta raqobatdosh ustunlikka ega bo‘lishi mumkin. Raqobatbardoshlikni ta’minlashda raqobatdosh ustunlikning u yoki bu omillarining rolini aniqlash, uning raqobatbardoshlik darajasiga va faoliyatning iqtisodiy samaradorligiga ta’sir darajasini aniqlash uchun ularni tasniflash kerak.

Oliy ta’lim muassasasi raqobatbardoshligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tasnifi 2-rasmda keltirilgan.



2-rasm. Oliy ta’lim muassasasi raqobatbardoshligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar tasnifi⁷

⁶ Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

⁷ Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.


Oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshlik salohiyatlari insoniy, intellektual, moddiy, texnologik, moliyaviy, axborot resurslari va boshqa komponentlar majmuini o'z ichiga oladi. Raqobatbardoshlik salohiyatining integral ko'rsatkichi raqobatbardoshlik dastagining tarkibiy qismlar (komponentlar)ning vaznli funktsiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$RD_y = \sum_{i=1}^n p_i * RD_i \quad (1)$$

Bu yerda n=13; RD_i - OTM raqobatbardosh dastagiga qo'shgan hissasini aks ettiruvchi i-komponent; p_i - i-komponentning og'irligi.

Olib borilgan tadqiqot natijalariga tayangan holda, muallif tomonidan "oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi" tushunchasi sog'lom raqobat muhitini yaratish tizimi sifatida "raqobatbardoshlik dastagi" (competitiveness lever) atamasini kiritish orqali takomillashtirilgan.

Oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta'minlash g'oyalarini ishlab chiqishda va tadqiqotning ilmiy yanligini asoslashda raqobatbardoshlik dastagi tushunchasini joriy etish asoslangan bo'lib, dissertatsiyada "raqobatbardoshlik dastagi" atamasiga "bozor munosabatlari subekti uchun barqaror raqobatbardoshlik ustunliklarni yaratishga va raqobatbardoshlik salohiyatini mustahkamlashga yordam beruvchi o'ziga xos kombinatsiyalarni shakllantirib, tashqi raqobat muhitidan resurslarni jalb qilish mexanizmi" – deb, ta'rif berildi.



3-rasm – OTM raqobatbardoshlik dastagini shakllantirish jarayoni⁸

Raqobatbardoshlik dastagini qo'llashning strategik maqsadi oliy ta'lim muassasalar o'rtasidagi raqobatbardosh hamkorlikni kuchaytirish sharoitida uning

⁸ Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

tuzilmasini o'zgartirish orqali o'z raqobatbardosh salohiyatini oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlashdan iborat.

Tashqi raqobat muhitidan muayyan tashkiliy, iqtisodiy va boshqaruv faoliyati orqali jalb qilingan resurslar uzoq muddatli barqaror raqobatbardoshlik ustunliklarni shakllantirish va rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlaydigan oliy ta'lim muassasasi faoliyatining strategik muhim yo'nalishlarini rivojlantirishga yo'naltiriladi. Dissertatsiya ishida oliy ta'lim muassasasining raqobatbardosh marketing strategiyasi turini tanlashda muallifning raqobatbardoshlik dastagi uslubini qo'llashdan foydalanilgan.

Oliy ta'lim muassasasi raqobatbardoshligi va ta'lim xizmatlari sifat darajasi oliy ta'lim muassasasining talab qilinadigan bir qator muhim dastaklarni oshirishga imkon beradigan raqobatbardoshlik imkoniyatlarini shakllantirishi kerak bo'ladi. Shuning uchun, dissertatsiya ishining mazkur bobida oliy ta'lim muassasasi raqobatbardoshligini funksional imkoniyatlar tasnifi bo'yicha mavjud turli yondashuvlarini (1-jadval) ko'rib chiqib, mualliflik yondashuvi ilmiy jihatdan asoslangan.

1-jadval

Oliy ta'lim muassasasi raqobatbardoshligini funksional imkoniyatlar tasnifi bo'yicha turli yondashuvlari⁹

Yondashuv mualliflari	Tasniflash sohasi	Imkoniyatlar xususiyatlari
Mishael Porter. Comretition Publisher: ID Williams, - 2010. 160 r	Raqobatbardoshlik ustunligi	- ishlab chiqarish omillaridagi mavqei, moddiy-texnika bazasi va zarur infratuzilmaning mavjudligi; - ta'lim xizmatlarining alohida turlariga talabning dinamikasi; — tegishli va yordamchi faoliyat turlarining mavjudligi yoki yo'qligi; — bozorda barqaror strategiya, tuzilma va raqobat darajasining mavjudligi
Азоев Г.Л., Челенков А.П. Конкурентные преимущества фирмы. — М.: ОАО «Типография «Новости», 2000.	Raqobatbardoshlik imkoniyatlari	-iqtisodiy imkoniyatlar; -huquqiy asoslarni mavjudligi; -boshqaruv tuzilmasi; -bozor infratuzilmalarining mavjudligi.
Никифорова С.В., Мамров А.Н. Конкурентные преимущества предприятия на международном рынке. — СПб.: Изд-во СПбГУЭФ, 2004.	Moddiy va nomoddiy resurslarga asoslangan universitetning raqobatdosh afzalliklari	- mehnat resurslari - texnologik resurslar - moliyaviy resurslar - axborot resurslari - aloqa munosabatlari - nomoddiy aktivlar
Muallif tavsiyasi	Raqobatbardoshlik dastagi	- Boshqaruv va moliya tizimi - Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar - Ta'lim sifati - Inson resurslari - Ta'lim xizmatlari - Targ'ibot va hamkorlik

⁹ Manba: Muallif tomonidan mavjud yondashuvlarni umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan.

Ta'lim xizmatlarining sifati, bir tomondan, ta'lim mazmuni va jarayonlarining ta'lim standartlari talablariga muvofiqligini anglatadi, boshqa tomondan, ta'lim jarayonining texnologik darajasini ta'minlashni anglatadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi, **“Oliy ta'lim muassasalarida marketing tadqiqotlarini tadqiq etish holati tahlili va uslubiy asoslari”** deb nomlanib, ushbu bobda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlarining rivojlanish tendensiyalari va hozirgi holati, oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari sifatini baholash marketing tadqiqotlari mexanizmini ishlab chiqishning uslubiy asoslari, oliy ta'lim muassasalarining ta'lim xizmatlari sifatini baholashda marketing tadqiqotlari mexanizmini ishlab chiqish hamda sinergetik yondashuvni tadqiq etish asoslari yoritilgan.

2-jadval

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining 2013- 2023 yillardagi asosiy ko'rsatkichlari o'zgarishi (o'quv yili boshiga)¹⁰

Ko'rsatkichlar	O'quv yili										2022/2023 o'quv yilida 2013/2014 o'quv yiliga nisbatan, marta
	2013/2014	2014/2015	2015/2016	2016/2017	2017/2018	2018/2019	2019/2020	2020/2021	2021/2022	2022/2023	
Oliy ta'lim muassasalari soni, birlik	64	66	68	69	70	72	98	119	127	154	2,4
Shu jumladan: xorijiy oliy ta'lim muassasalari soni, birlik	6	6	7	7	7	7	10	16	18	25	4,2
Oliy ta'lim muassasalaridagi talabalar soni, ming kishi	258,3	259,3	261,3	264,3	268,3	297,7	360,2	441,0	571,5	808,4	3,1
10 000 aholiga nisbatan to'g'ri keladigan OTM talabalari soni, kishi	86	85	84	84	84	93	110	130	165	229	2,7
Oliy ta'lim muassasalariga qabul qilingan talabalar soni, ming kishi	63,1	62,3	64,1	63,0	61,2	63,0	114,5	138,1	174,9	235,9	3,7
Oliy ta'lim muassasalarini bitirgan talabalar soni, ming kishi	60,9	60,5	67,6	66,3	64,1	67,4	70,3	70,8	83,9	103,9	1,7

2-jadval tahlilida ko'rishimiz mumkinki 2013-yilda oliy ta'lim muassasalari soni 64 tani tashkil etgan bo'lsa, 10 yil davomida ularning soni 2,4 marta ortib, 2022-2023 o'quv yili oxiriga kelib, 154 taga yetgan bo'lsa, 2023-2024 o'quv yili boshida 210 tani tashkil etayapti. Shundan, 31 tasi xorijiy oliy ta'lim muassasalari filiallari bo'lsa, 43 tasi nodavlat oliy ta'lim muassasalariga to'g'ri keladi.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2022-2023 o'quv yili bo'yicha ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda 154 ta OTM faoliyat olib borgan.

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan jamlangan.

Oliy ta'lim muassasalari sonining keskin ortish davri 2018 yildan boshlanib, shu yildan hozirgi davrgacha ushbu ko'rstkichning o'sishi 2 martadan ortiqroqni tashkil etadi.

2017-2018 o'quv yilidan sirtqi ta'lim shakliga talabalar qabul qilinishi uchun kvotalar ko'paytirilgan bo'lsa, 2018-2022 o'quv yilida kechki ta'lim shakli uchun qabul kvotalari berilgan. 2021-2022 o'quv yili boshiga OTMlarning talabalari soni 808,4 mingtani tashkil etib, o'quv yili boshida sirtqi ta'lim shaklida 228,0 ming talaba, kechki ta'lim shaklida 26,5 ming, kunduzgi ta'lim shaklida 553,9 ming talaba tahsil olgan.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufida oliy ta'lim muassasalari soni 210 ta, shu jumladan filiallar soni 44 tani tashkil etmoqda. Davlat OTM soni 116 ta (63-OTFIV), filiallar – 26 ta, Akademiya – 3 ta, universitet – 55 ta, institut – 47 ta, nodavlat OTM soni – 63 ta, xorijiy oliy ta'lim muassasalari soni – 31 tani tashkil etmoqda.

Bu albatta, oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim tashkilotlari o'rtasida sog'lom raqobat muhitini yaratish, ta'lim sifatini yanada yuqori bosqichga olib chiqish va ularning xalqaro reytinglarga kirishiga har tomonlama ko'maklashish maqsadida so'nggi besh yilda oliy ta'lim muassasalarining milliy reytingi e'lon qilib boriladi.

Oliy ta'lim muassasasi raqobatbardoshligini baholashda asosiy talab etiladigan jihat, uning sifat o'lchovlarining ilmiy nuqtai nazaridan yetarli darajada aniq va amaliy jihatdan maqbul uslublarining mavjud bo'lmasligida.

Asosiy muammo oliy ta'lim muassasasi raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning mexanizmini ishlab chiqish bo'lib qolmoqda. Oliy ta'lim muassasasi raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim xizmatlari sifatini oshirish mexanizmini ishlab chiqish maqsadida iqtisodchi olimlarning ta'lim xizmatlari sifatining baholashni ikki guruhga bo'lishgan bir qator quyidagi yondashuvlari o'rganildi va har birining afzal tomonlari, kamchiliklari, bog'liqliklari va tafovudlari qiyosiy tahlili asosida aniqlandi.

Ta'lim xizmatlari sifatini baholashning birinchi usuli – SERVQUAL modeli bo'lib, u ham A.Parasuraman, V.Zeythaml va L.Berri tomonidan taklif qilingan. Model 5 ta guruhga birlashtirilishi mumkin bo'lgan 22 juft savollarni o'z ichiga olgan so'rovnomanini o'z ichiga oladi.

Stokgolm Iqtisodiyot maktabi xodimlari tomonidan ishlab chiqilgan iste'molchilarning qoniqish indeksini hisoblash metodologiyasi amaliyotda keng qo'llanila boshlandi. Ushbu texnikaning o'ziga xos xususiyati omillarni aniqlash va mijozlarning qoniqishi va sodiqligi sabablarini baholash uchun intervyu usulidan foydalanishdir.

Mazkur yondashuvlarini qiyosiy tahlili ko'rsatdiki, ularda oliy ta'lim muassasasi raqobatbardoshligini ta'minlash inobatga olinmaydi va ta'lim xizmatlarining sifat bosqichlari (nazorat, ta'minot, umumiy sifat menejmenti) va jarayoni (faoliyatga, jarayonga, tizimga yo'naltirilganligi)ni baholash imkonini bermaydi.


Dissertatsiya ishi jarayonida oliy ta'lim muassasalarida sifat boshqaruv modellari asosida ta'lim sifatini baholashning marketing tadqiqotlari mexanizmini GAPs modeli asosida takomillashtirib, ta'lim muassasalari, amaliyot va talabalar o'rtasidagi munosabatlar samaradorligini oshirishda ta'lim va o'qitish sifatini

baholashdagi bo'shliqlarni bartaraf etishga ustuvorlik berish asosida "xavfni tahlil etish" axborot tizimi bo'yicha ilmiy xulosalar asoslab berilgan.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi oliy ta'lim sifatini monitoring qilish va baholash jarayonida bo'shliqlardagi xavfni tahlil asosida alohida komponentlari o'rtasidagi aloqalarni tadqiqotdan o'tkazish va olingan natijalar asosida OTM muhiti uchun "xavfni tahlil etish" modelini taklif etishdan iborat. "Xavfni tahlil etish" axborot tizimi tahlili xizmatlar ko'rsatadigan tashkilotlarda sifatni ta'minlash jarayonlari uchun nisbatan keng qo'llaniladigan yondashuvdir.

Dissertatsiya ishida "Xavfni tahlil etish" axborot tizimi tahlilida aniqlangan individual bo'shliqlar asosida tizimli yondashuvdan potensial foydalanishni o'rganish natijalarini taqdim etadi va metodologiyaning alohida komponentlari o'rtasidagi mumkin bo'lgan eng past farqlarni ta'minlash bo'yicha tavsiyalarni umumlashtiradi.

Xorijiy mamlakatlarda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari sifatini oshirish Umumiy Sifat Menejmenti (TQM) konsepsiyasiga asoslanganligi dissertatsiya ishi tadqiqotlari natijasida aniqlangan. Bizning fikrimizcha, ta'lim xizmatlari sifatini oshirish TQM tamoyil va unsurlarining ta'lim muassasasida qay darajada tadbiiq qilinganligini o'rganish, EFQM modelidagi ajratilgan "Imkoniyatlar" va "Natijalar" guruhlaridagi yirik mezonlari asosida zamonaviy xizmatlar sifatini baholash usullari OTMlarda sifatni baholash va tashxis qo'yish uchun bir muhim metodologik asos sifatida xizmat qiladi. Biz taklif qilayotgan marketing tadqiqotlari mexanizmi da oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari sifatini diagnozlash xususiyatiga ega bo'lib, soddaligi va hisob- kitoblarning oddiyligi bilan farqlanadi. "Imkoniyatlar" guruhi mezonlarini SERVQUAL usulida va "Natijalar" guruhi mezonlarini RADAR matritsasi orqali baholash OTMlar faoliyatini qaysi sifat darajasida qaror topganligini tashxislash imkoniyatini yaratadi, degan xulosaga kelindi. Bunda, dissertatsiyada ta'lim xizmatlari sifatini ifodalovchi muhim raqobatbardoshlik indikatorlari oliy ta'lim raqobatbardoshligini ta'minlashga imkon beradigan raqobatbardoshlik dastaklari majmui deb, tushiniladi.



4-rasm. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini baholashning "xavfni tahlil etish" axborot tizimi tasnifi¹¹

4-rasmdan ko'rinib turibiki oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari

¹¹ Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

sifatini oshirishning GAPs modelining o'ziga xosligi shundan iboratki, unda OTMda sifat boshqarish faoliyatini TQMning asosiy tamoyil va unsurlariga tayanadi. Xorijiy amaliyotda keng qo'llanib kelinayotgan EFQMning to'qqizta yirik mezonli oliy ta'lim tizimiga moslashtirilgan TRIS-EFQM modeli asosida O'zbekiston sharoitiga moslashtirildi. Uning "Imkoniyatlar" va "Natijalar" guruhidagi yirik mezonlar raqobatbardoshlik dastagiga asoslanib, boshqaruv va moliya tizimi, tadqiqotlar va innovatsiya, ta'lim sifati, inson resurslari, yashil hudud, targ'ibot va hamkorlik kabi mezonlari kiritilib ta'lim xizmatlari sifatini baholashga moslashtirildi.

Dissertatsiyada oliy ta'lim muassasasi raqobatbardoshlik darajasini baholash maqsadida "ta'lim xizmatlari sifatini baholash" ning hisob-kitobini olti ta quyidagi bosqichda amalga oshirishini tavsiya etiladi:

1. Tadqiqot obyekti aniqlash. OTM (ta'lim muassasasi, fakul'tet yoki ta'lim yo'nalishi)

2. Tadqiqot jarayonining ta'rifi. Oliy ta'lim muassasasi faoliyatini baholash oldindan ishlab chiqilgan so'rovnoma shaklida amalga oshiriladi.

3. Tahlil qilinadigan ko'rsatkichlar ro'yxatini muvofiqlashtirish. Anketa uch qismga bo'lingan: "Imkoniyatlar", "Natijalar" va "Ahamiyat".

4. Respondentlarning tanlov hajmi, tarkibi va tuzilishini aniqlash.

5. Respondentlar o'rtasida so'rov o'tkazish.

6. Tadqiqot natijalarini qayta ishlash.

Oliy ta'lim muassasasida ta'lim xizmatlari sifat koeffitsienti har bir mezon bo'yicha "Imkoniyatlar" va "Natijalar" reytinglari o'rtasidagi farq sifatida hisoblanadi:

$$SQ = P - E \quad (2)$$

Bu yerda SQ - OTM faoliyati sifatining qondirilganlik darajasi; E - Imkoniyatlar (kutilayotgan natijalar); P - natijalar (erishilgan natijalar).

Tenglama asosida barcha olti tamoyil va har bir savollar bo'yicha qondirilish darajasi va kutilgan natijalarning erishilgan darajalarga nisbat indeksi aniqlanadi.

$$SQ_i = P_i - E_i \quad (3)$$

Bu yerda SQ_i - o'lchov mezonning (savolning) qondirilganlik darajasi; E_i - o'lchov mezonning (savolning) kutilayotgan natijasi; P_i - o'lchov mezonning (savolning) erishilgan natijasi.

$$SQ_{ki} = P_i / E_i \quad (4)$$

Bu yerda SQ_{ki} - o'lchov mezonning (savolning) nisbat indeksi.

$SQ=0$ tenglama mazmuni tahlil davrdagi OTM tomonidan ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlari sifati talabalarning ehtiyojlariga muvofiqligini anglatadi. SQ ning noldan past qiymatga ega bo'lishi OTM faoliyati sifatiga talabalarning ehtiyojlari darajasidan pastligini anglatadi. SQ ning salbiy natijalari SERVQUAL modeli uchun xususiyatlidir. SQ ning natijalari qancha ko'p salbiy qiymatga ega bo'lsa, talabalarning OTM faoliyati sifatiga qoniqish darajasi shuncha past bo'ladi. SQ natijalari mazmuni OTM faoliyati sifatini kamchiliklarini emas, balki ta'lim sifatini oshirish tamoyillarini ko'rsatib beradi. SQ ning noldan yuqori qiymatga ega bo'lishi OTM faoliyati sifatiga talabalarning ehtiyojlari darajasidan oshishini anglatadi.

Sifat ta'minoti tizimining biz taklif qilayotgan modeli Evropa va MDH OTMlarida qo'llanilgan sifat boshqaruvi modellarga asoslanadi va o'z

extiyojlarimizga moslashtirildi. EFQM modeliga asoslangan Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari sifatini oshirishning GAPs modeli Yangi O'zbekiston sharoitiga tatbiq qilish OTMlarda ta'lim sifatini ta'minlashda yuqori samara beradi hamda ta'lim xizmatlari sifatini baholash uchun samarali mexanizm hisoblanadi.

Buxoro davlat universiteti talabalarida qo'llanilgan SERVQUAL so'rovnomasining hisoblangan natijalari 4-jadvalda o'z aksini topgan.

4-jadval

Buxoro davlat universiteti misolida "xavfni tahlil etish" axborot tizimi bo'yicha SERVQUAL so'rovnomasining hisoblangan natijalari¹²

	savollar	Kutilayotgan natijalar (E)						Erishilgan natijalar (P)						(P-E)
		Respondentlar javobi					O'rtacha baho	Respondentlar javobi					O'rtacha baho	
		1	2	3	4	5		1	2	3	4	5		
Boshqaruv va moliya tizimi	1	68	0	70	89	343	4,120	109	98	27	81	255	3,482	-0,638
	2	12	5	18	74	461	4,695	212	156	95	47	60	2,276	-2,419
	3	55	50	64	134	267	3,892	46	39	84	89	312	4,021	0,129
	4	32	0	71	89	378	4,370	13	15	52	82	408	4,506	0,136
O'rtacha koefitsienti = -0,698														
Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar	5	119	101	35	73	242	4,117	37	2	59	101	371	4,345	0,228
	6	37	2	59	101	371	4,345	256	153	94	47	20	2,565	-1,780
	7	11	15	52	83	409	4,516	127	50	64	137	192	3,380	-1,136
	8	57	66	68	130	249	3,786	62	1	69	89	349	4,161	0,375
O'rtacha koefitsienti = -0,578														
Ta'lim sifati	9	8	1	28	83	450	4,695	69	66	58	128	249	3,740	-0,955
	10	15	5	7	76	467	4,710	135	102	36	73	224	3,262	-1,448
	11	20	16	51	78	405	4,459	144	102	36	74	214	3,196	-1,263
	12	3	5	18	76	468	4,756	59	65	68	130	248	3,778	-0,978
O'rtacha narx koefitsienti = -1,161														
Inson resurslari	13	37	2	59	101	371	4,345	168	122	36	73	171	2,924	-1,421
	14	11	15	52	83	409	4,516	142	50	64	134	180	3,280	-1,236
	15	137	103	34	72	224	3,251	127	50	64	137	192	3,380	0,129
	16	62	1	69	89	349	4,161	48	36	85	86	315	4,025	-0,136
O'rtacha koefitsienti = -0,666														
Ta'lim xizmatlari	17	20	16	51	78	405	4,459	144	102	36	74	214	3,196	-1,263
	18	15	5	7	76	467	4,710	66	53	54	130	267	3,841	-0,869
	19	8	1	28	83	450	4,695	69	66	58	128	249	3,740	-0,955
	20	64	5	7	67	427	4,383	135	102	36	73	224	3,262	-1,121
O'rtacha koefitsienti = -1,052														
Targ'ibot va hamkorlik	21	37	2	59	101	371	4,345	118	102	35	73	242	3,384	-0,961
	22	58	1	69	88	352	4,173	109	98	27	81	255	3,482	-0,691
	23	10	5	18	74	463	4,710	51	42	62	142	273	3,955	-0,755
	24	37	2	59	101	371	4,345	168	122	36	73	171	2,924	-1,421
O'rtacha koefitsienti = -0,957														
Umumiy o'rtacha koefitsient = -0,852														

Tahlil natijalari OTM faoliyati sifatining har bir olti tamoyil savollari asosida kutilayotgan natijalar va erishilgan natijalar o'rtasidagi farqini belgilab beradi.

Ta'kidlab o'tishimiz lozimki, salbiy natijalarni oddiy muammo emas, balki

¹² Muallif ishlanmasi

OTM faoliyati sifatini yaxshilash imkoniyatlari sifatida qabul qilib, salbiy natijalar yuqoriroq bo'lgan muammolarga e'tibor qaratish lozim.

Dissertatsiya ishida tajriba sifatida olingan Buxoro davlat universiteti faoliyati sifatini baholash uchun qo'llanilgan SERVQUAL so'rovnomada ishtirok etgan talabalar soni 570 tani (umumiy talabalar sonining 9,3 %ini) jumladan, bakalavriat talabalarining 511 tani (ushbu yo'nalishdagi umumiy talabalar sonining 9,6 %ini) va magistratura talabalarining 59 tani (ushbu yo'nalishdagi umumiy talabalar sonining 39,5 %ini) tashkil etadi. Albatta, bu Buxoro davlat universiteti misolida ta'lim sifatini baholashga nisbiy jihatdan yondashishi talab qiladi. Shunga qaramay, biz OTM faoliyati sifatini oshirishda yuqori imkoniyatli va istiqbolli jabhalarni aniqlashga erishdik.

Buxoro davlat universiteti faoliyati sifatini baholash bo'yicha rahbar-xodimlar o'rtasida o'tqazilgan so'rovnoma natijasi rahbar-xodimlarning qoniqqanligi 74 % ni tashkil etganini ko'rsatdi. Buxoro davlat universitetida rahbar-xodimlarning qoniqqanligini yana 26 % gacha oshirish mumkin bo'lgan chora-tadbirlar va tavsiyalar ishlab chiqildi. Natijada, qayta so'rovnoma o'tqazish natijalari rahbar-xodimlarning Buxoro davlat universiteti faoliyati sifatiga qoniqqanlik darajasi 74 % dan 86,7 % oshishiga erishilgani aniqlandi.

Shu o'rinda, OTM faoliyati sifatining talabalar doirasida qondirilganlik darajasi umumiy o'rtacha -0,852 qiymatga ega bo'lib, kutilgan natijalarning erishilgan darajalarga nisbat indeksi 0,86 qiymatni tashkil etdi. Mazkur holat Buxoro davlat universitetining barcha jabhalarida ta'lim sifatini oshirishning yuqori imkoniyatlari va istiqboli yaratildi.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobi **“Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini ta'minlash va ta'lim sifatini baholashda zamonaviy marketing tadqiqotlardan foydalanish istiqbollari”** deb nomlanib, mazkur bobda ta'lim xizmatlari bozorida talab asosida oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini 2024-2028 yillarda prognozlantirish, oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardosh marketing strategiyalarni takomillashtirish yo'nalishlari, oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligi va ta'lim xizmatlari sifatini baholash mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari tadqiq qilingan.

Ta'limni rivojlanish darajasi nafaqat mamlakat iqtisodiyot darajasini, balki intellektual, madaniy va ma'naviy rivojlanish darajasini ham belgilab beradi, bu strategik nuqtai nazardan mamlakat xalq xo'jaligini rivojlanishiga qaraganda ancha muhimroq vazifadir. Ta'lim xizmatlarining muhimligini hisobga olgan holda, oliy ta'limni qamrab olish darajasiga, ta'lim xizmatlari bozorida oliy ta'lim muassasalarining ulushiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Bozor iqtisodiyotini shakllantirish davrida O'zbekiston xizmat ko'rsatish shu jumladan, ta'lim sohasida sezilarli o'zgarishlarni amalga oshirdi. Ilgari rejali xalq xo'jaligining tarmoqlaridan biri hisoblangan xizmat ko'rsatish sohasi bugungi bozor iqtisodiyotining sub'ektiga aylanib, korxonalar faoliyatining ish sifatiga va kadrlar tarkibiga ta'sir ko'rsatdi. Keyingi 10 yillikda aholiga pullik xizmatlar ko'rsatish hajmi ham, ta'lim xizmatlari hajmi ham doimiy ravishda o'sib bordi. Pullik xizmatlar hajmi 2013-yildagi 55872,8 mlrd. so'mga nisbatan 2023-yilga kelib 8,5 baravar ya'ni 470286,5 mlrd so'mga oshdi.

O‘zbekiston Respublikasida 2013-2023 yillarda aholiga pullik xizmatlar va ta’lim xizmatlari hajmi dinamikasi¹³

Yillar	Xizmatlar hajmi		Shundan, ta’lim xizmatlari hajmi	
	mlrd. so‘m	oldingi yilga nisbatan o‘shish surati, %	mlrd. so‘m	oldingi yilga nisbatan o‘shish surati, %
2013	55 872,8	114,4	1 793,0	105,2
2014	68 032,1	114,2	2 154,4	109,1
2015	78 530,4	113,4	2 681,4	111,2
2016	97 050,0	114,7	3 263,0	107,8
2017	118 811,0	110,7	4 402,0	125,6
2018	150 889,8	108,9	5 416,5	110,5
2019	193 697,8	113,2	7 164,9	109,5
2020	219 978,5	103,0	8 539,4	101,0
2021	284 388,1	119,5	12 102,6	130,8
2022	366 891,0	116,3	15 858,4	114,1
2023	470 286,5	113,7	20 418,4	122,8

So‘nggi yillarda ta’lim xizmatlari bozoridagi vaziyat sezilarli darajada o‘zgardi va yanada murakkablashdi. Bozor o‘zgarishlari jarayonida davlat oliy ta’lim muassasalarini markazlashtirilgan holda moliyalashtirish jarayoni qisqartirildi. Bu jarayon ta’limning tijorat shakllarini ishlab chiqish va budjetdan tashqari moliyalashtirish manbalarini topish orqali amalga oshirilishi bilan xarakterlidir. Shu maqsadda malakali kadrlar tayyorlash xususiyatlari ta’lim xizmatlari bozorining bevosita ehtiyojlariga tobora ko‘proq yo‘naltirilmoqda. Bundan tashqari, mehnat bozorida mutaxassislarga bo‘lgan talabning shakllanishi ta’lim xizmatlari bozori tarkibiga bilvosita ta’sir qiladi, chunki ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar rivojlanish tendensiyalarining noaniqligi sharoitida mutaxassislarga bo‘lgan talabning potensial tarkibini oldindan prognozlashtirish murakkab.

2023-yilda respublikada 210 ta oliy ta’lim muassasasi faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 31 tasi xorijiy universitetlarning filiillaridir.

Mintaqaviy va xalqaro ta’lim xizmatlarining tashkil etilishi iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish omili sifatida oliy ta’lim rivojiga tayangan holda raqobatbardoshlikni oshirish va mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mazkur tadqiqot ishida muallif Stata 14 dasturiy ta’minotlardagi analiz paketlaridan foydalangan holda korrelyatsiya va regressiya tahlili usullari bilan statistik ma’lumotlarni qayta ishlash imkoniyatlaridan foydalanilgan.

Bizning fikrimizcha matematik modeldan foydalangan holda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatishda bozor ulushini tahlil qilish orqali oliy ta’lim

¹³ O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan jamlangan.

muassasalarining raqobatbardoshligini baholash, quyidagilarga imkon beradi:

- oliy ta'lim muassasasi yoki uning bo'linmasining raqobatbardoshligiga ta'sir qiluvchi eng muhim omillarni aniqlash;
- ularni yagona raqamli modelga jamlash;
- ta'lim xizmatlari bozorning alohida segmentida oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshligiga miqdoriy baho berish;
- ta'lim xizmatlarining individual parametrlari va uning raqobatbardoshligini o'zgarishi qonuniyatlarini ajratib ko'rsatish.

Ta'lim xizmatlari hajmining o'zgarishini endogen omil sifatida o'rgangan holda uning asosiy omillar ta'sirida o'zgarishi bo'yicha ko'p omilli tahlil amalga oshirildi. Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshishiga ta'lim xizmatlari hajmini funktsiyaning yuqori cho'qqisi, ya'ni natijaviy omil sifatida belgilab olgan holda, unga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlarini amalga oshirilgan tadqiqot usullari natijalari hamda yetakchi ekspertlari ishtirokida o'tkazilgan ekspert tahlili asosida tanlangan quyidagi ko'rsatkichlar tanlandi:

X_1 – Aholiga jon boshiga YaIM;

X_2 – OTM bitiruvchilari;

X_3 – O'rtacha ish haqi;

X_4 – OTM soni;

X_5 – Innovatsiyalarga qilingan xarajatlar hajmi;

X_6 – OTMlarida o'qituvchilar soni;

X_7 – OTMlarining bakalavriatiga topshirgan arizalar soni;

X_8 – OTMlarining bakalavriatiga qabul qilingan talabalar soni;

X_9 – 15-24 yoshdagi aholi soni;

X_{10} – OTMlari professor-o'qituvchilarining ilmiy salohiyati.

Ekonometrik modeldagi natijaviy omil sifatida tanlangan ta'lim xizmatlari hajmi (Y) va unga ta'sir etuvchi omillarning o'zaro juft korrelyatsion bog'lanish darajasini korrelyatsion tahlil asosida o'rganib chiqildi. Korrelyatsion tahlil natijaviy omil bilan ta'sir etuvchi omillar o'rtasidagi bog'lanish zichligi zaruriy shartlarni qanoatlantirgan ta'sir etuvchi ekzogen omillar sifatida o'rtacha ish haqi (X_3), innovatsiyalarga qilingan xarajatlar hajmi (X_5) va oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga topshirgan arizalar soni (X_7) kabi ko'rsatkichlar tanlab olindi (6-jadval).

6-jadval

Ta'lim xizmatlari hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi omil ko'rsatkichlari¹⁴

Yillar	Ta'lim xizmatlari hajmi, mlrd so'm (Y)	O'rtacha ish haqi, ming so'm (X_3)	Innovatsiyalarga qilingan xarajatlar hajmi, mlrd. so'm (X_5)	Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga topshirgan arizalar soni, ming kishi (X_7)
2014	2 154,4	1 061,2	3457,4	549,5
2015	2 681,4	1 060,1	5528,3	616,3
2016	3 263,0	1 064,2	2571,4	672,6
2017	4 402,0	1 251,5	4162,3	786,1
2018	5 416,5	1 542,6	4707,2	813,6
2019	7 164,9	1 946,8	6603,5	1157,6
2020	8 539,4	2 227,1	6830	1820,3
2021	12 102,6	2 662,0	17680,8	1204,9
2022	15 858,4	3 204,3	19130,6	1656,5
2023	20 418,4	4 550,0	19680,8	1718,0

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan jamlangan.

Ta'lim xizmatlari hajmiga ta'sir etuvchi ekzogen omil ko'rsatkichlarining tanlanish mohiyati shundan iboratki, dastlab ta'sir etuvchi omillar sifatida tadqiqot ishida tanlanma kuzatuvlar, maxsus so'rovnoma asosida o'tkazilgan so'roq va ekspert baholash natijalari asosida tanlangan ilmiy salohiyat, sarmoya hamda iste'molchilar hajmi singari muhim ta'sirga ega bo'lgan omillarni ifodalovchi omil ko'rsatkichlari va o'zgaruvchilar o'rtasida multikoleniarlik muammosi borligi yoki yo'qligini korrelyatsiya tahlili asosida tekshirib ko'rildi. Ajratib olingan asosiy endogen va ekzogen omillarning bog'lanishi asosida oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini ta'minlashga asos bo'luvchi bozordagi ta'lim xizmatlari hajmining o'zgarish trendlarini aniqlash maqsadida yuqoridagi vaqtli qator ko'rinishidagi ma'lumotlarni Stata 14 dasturiy paketdan foydalangan holda tahlil qilindi.

Dasturiy paket asosida ta'lim xizmatlari hajmining ta'sir etuvchi omillar bilan ko'plikdagi korrelyatsiyasi $r=0,9966$ ga, determinatsiya koeffitsiyenti $R^2=0,9933$ ga teng ekanligini ko'rsatmoqda. Bu esa ta'sir etuvchi omillar bilan natijaviy omilning yuqori zichlikda korrelyatsiyaga ega ekanligini va hisoblangan ko'rsatkichlar bilan real ko'rsatkichlar orasidagi farq sifatidagi qoldiqlarning ham zich bog'langanligini ko'rsatadi. Aniqlangan modeldagi endogen omil uchun Fisher mezoni qiymati 300,43 ga teng bo'lib, uning ahamiyati $6,29125295536899E-07$ ga teng. Jumladan, Fisher mezoni ahamiyati bog'liq bo'lgan VAR, Akiakey axborot mezoni, Shvars mezoni, Xannan-Kuin mezoni me'yoriy oraliqlarda joylashgan, faqat Darbin-Uotson mezoni optimal oraliq bo'lgan 2 dan bir oz katta.

Tadqiq qilingan ma'lumotlardan foydalangan holda ta'lim xizmatlari hajmi va unga ta'sir etuvchi ekzogen omillar ta'sirida o'zgarishining ko'p omilli ekonometrik modeli yaratildi. Unga ko'ra ushbu jarayonni ifodalovchi regressiyatenglamasi tuzildi.

$$y = 3,857x_3 + 0,214x_5 + 0,753x_7 - 2501,05 \quad (5)$$


Tegishli dasturiy paketdan foydalangan holda tuzilgan model va uning parametrlarining ishonchliligi hamda adekvatligini bir necha mezonlar asosida tekshirib, natijalar aniqligiga ishonch hosil qilindi. Aniqlangan trendda avtokorrelyatsiya belgilangan optimal chegaradan bir oz pastligi ($DW=1,61$) va boshqa mezonlar bo'yicha talabga javob berganligidan yuqorida aniqlangan regressiya tenglamasi ishonchli deb topildi va adekvatligi isbotlandi.

Bundan ko'rinib turibdiki, tuzilgan ekonometrik modelni ahamiyati jihatidan amaliyotda qo'llash mumkin. Model sifati dasturiy paket vositasida Akiake axborot mezoni (13,46), Shvars mezoni (13,58) va Xannan-Kuin mezoni (13,32) orqali baholangan. Ushbu mezonlar qiymati ham trend modelini amaliyotda qo'llash mumkinligini ko'rsatadi. Tuzilgan ekonometrik modelda avtokorrelyatsiya yoki multikolleniarlik mavjudligini aniqlash imkonini beruvchi Darbin-Uotson (DW) mezoni 1,61 ga teng bo'lib, optimal chegara 2,0 atrofida ekanligi hisobga olinsa, modelda avtokorrelyatsiya darajasi deyarli mavjud emasligini ko'rish mumkin.

Dasturiy paketdan foydalangan holda aniqlangan trend modellari asosida 2024-2028 yillarda ta'lim xizmatlari hajmi va unga ta'sir etuvchi omillarining prognoz ko'rsatkichlari aniqlandi (7-jadval).

2024-2028 yillarda ta'lim xizmatlari hajmi va unga ta'sir etuvchi ko'rsatkichlarining prognozlari¹⁵

Yillar	Ta'lim xizmatlari hajmi, mlrd so'm (Y)	O'rtacha ish haqi, ming so'm (X_1)	Innovatsiyalarga qilingan xarajatlar hajmi, mlrd. so'm (X_5)	Oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga topshirgan arizalar soni, ming kishi (X_7)
2024	24 896,2	4 899,9	21917,693	1929,1
2024	29 446,4	5 249,7	23895,804	2073,4
2025	33 996,5	5 599,6	25873,915	2217,6
2026	38 546,7	5 949,5	27852,026	2361,8
2028	43 096,9	6 299,4	29830,137	2506,1



5-rasm. 2014-2028 yillarda ta'lim xizmatlari hajmining o'zgarishi (2024-2028 yillar prognoz ko'rsatkichlari)¹⁶

Yuqoridagi rasm va jadvaldan ko'rinib turibdiki, oliy ta'lim muassasalarining bakalavriatiga topshirgan arizalar soni so'ngi 5 yil davomida o'sish surati o'rtacha 4% bo'lsa, keyingi 5 yilda o'rtacha 5-6 foiz o'sish kuzatilishi kutilmoqda. Ushbu 2024-2028 yillarda oliy ta'lim muassasalarida ta'lim xizmatlari hajmining prognozi keskin o'zgarishi mumkinligidan dalolat beradi. Bu holat kelajakda iqtisodiyotimizda band bo'lgan aholi tarkibida oliy ma'lumotli kishilarning ulushining oshishiga aholining intellektual salohiyatining ko'tarilishiga va kadrlar o'rtasida raqobatning kuchayishiga sabab bo'ladi. Oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshlik salohiyati insoniy, intellektual, moddiy, texnologik, moliyaviy, axborot resurslari va boshqa ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshlik salohiyati muhim raqobatbardoshlik indekatorlar KCI tizimida ekspert usulida to'plangan umumiy

¹⁵ Muallif hisob-kitoblari asosida tayorlangan.

¹⁶ Manba: Ilmiy-tadqiqot natijalariga asosan muallif tomonidan ishlab chiqildi.

ballari etalon bahosi bilan qiyoslash evaziga raqobatbardoshlik darajasining mul'tiplikatori quyidagi formula bilan hisoblash tavsiya etiladi:

$$KCI = \sum_{i=1}^n P_i * CI_i \quad (5)$$

Bu yerda, $n=14$, P_i - i -komponentning og'irligi, CI - raqobatbardoshlik indekatorlari.

OTMning raqobatbardosh dastagining tuzilishi ikkita o'zgaruvchining funktsiyasi $f(O'RD_y; JRD_y)$ bilan bog'liq,

bu yerda:

$O'RD_y$ – ta'lim muassasasining o'z resurslari hisobidan shakllantirilgan raqobatbardoshlik salohiyati;

JRD_y - tashqi raqobat muhitidan jalb qilingan resurslar orqali shakllangan ta'lim muassasasining raqobatbardoshlik salohiyati.

Raqobatbardoshlik dastagi ta'siri quyidagi nisbat sifatida topiladi:

$$RDT_y = \frac{JRD_y}{O'RD_y} \quad (6)$$

Raqobatbardoshlik dastagida tashqi resurslardan foydalanish ulushi esa quyidagi nisbat sifatida topiladi:

$$RDU_y = \frac{JRD_y}{JRD_y + O'RD_y} \quad (7)$$

RDU_y qiymati raqobatbardoshlik dastagi tashqi resurslardan foydalanish darajasini hamda oliy ta'lim muassasasi raqobat strategiyalarini belgilaydi.

8-jadval

Raqobatbardoshlik dastagining tashqi resurslardan foydalanish darajasi asosida oliy ta'lim muassasasi raqobatbardoshlik marketing strategiyalarining tasniflanishi

		Raqobatbardoshlik dastagida tashqi resurslardan foydalanish ulushi, %	Raqobatbardoshlik strategiyalari		
			<i>past (lower)</i>	<i>o'rta (medium)</i>	<i>yuqori (higher)</i>
Raqobatbardoshlik dastagi	<i>tashqi dastak (External Lever)</i>	[70-100]	Tavakkal	Boshlang'ich	Global strategiya
	<i>aralash dastak (Mixed Lever)</i>	[40 -69]	Passiv mudofaa	Pozitsiyaviy mudofaa	Muhim sohalarda harakat
	<i>ichki dastak (Internal Lever)</i>	[0 – 39]	Omon qolish	Mobil mudofaa	Pozitsiyalar ni saqlash

Oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardoshlik dastagini tasniflashda xorijiy tajribalarni o'rganish asosida biz o'z tadqiqotlarimizda jahon universitetlari tomonidan "Global raqobatbardosh universitet" WCU maqomiga erishish jarayonida qo'llaniladigan "raqobatbardosh joylashuv" – "raqobatbardoshlik dastagi" raqobatbardoshlik joylashuv matritsasining (CPM) tashqi resurslardan foydalanish ulushiga nisbatan – ichki dastak (Internal Lever); aralash dastak (Mixed Lever); tashqi dastak (External Lever) mezonlarga tabaqalashtirish asosida

¹⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

raqobatbardoshlik marketing strategiyalarini qabul qilishning mualliflik tasnifi ishlab chiqilgan (8-jadval).

Qaysi raqobatbardoshlik dastagi - ichki yoki tashqi - yaxshiroq degan savol, muassasaning aniq holatiga, sohasiga va strategik maqsadlariga bog'liq. Ularning har biri o'zining afzalliklari va cheklovlariga ega. Muayyan holatlarga qarab ikkalasining kombinatsiyasini tanlash muhimdir.

Oliy ta'lim muassasasining barqaror raqobatbardoshligini ta'minlash jarayonining eng muhim vazifasi oliy ta'lim muassasasining barqaror raqobatbardoshlik ustunliklari hamda ichki va tashqi raqobat muhiti sharoitlarini hisobga olgan holda raqobat strategiyasini tanlash va amalga oshirishdan iborat.

Buxoro davlat universiteti misolida olib borilgan tahlillar natijasiga ko'ra, "Muhim sohalarda harakat" raqobatbardoshlik marketing strategiyasini qabul qilish taklif etildi.

Raqobatbardoshlik marketing strategiyasining maqsadi Global darajasidagi universitet (GCU) maqomiga erishish va uni saqlab qolish.

Bunda tezkor muvaffaqiyatga erishish uchun - sa'y-harakatlarni universitet muhim raqobatbardosh salohiyatga ega bo'lgan tanlangan istiqbolli yo'nalishlarga jamlash orqali yuqori raqobatbardosh o'rinlarni egallash uchun ishlatiladi. O'zining strategik maqsadiga erishish uchun universitet o'z resurslarini saqlaydigan va rivojlantiradigan yuqori malakali mutaxassislar jamoasini shakllantiradi, ammo raqobatbardosh salohiyatini oshirish uchun resurslarning katta qismi universitet tomonidan tashqi raqobat muhitidan jalb qilinadi. Tashqi resurslarni jalb qilish xarajatlari universitetning o'z resurslarini saqlash va rivojlantirish xarajatlari bilan taqqoslanadi. Buning natijasida universitet 5 yilda milliy reytingda 16-o'rindan 5-o'ringa QS va THE xalqaro reytinglariga top-1000 lik ro'yxatda bo'lishga erishadi.

XULOSA

Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini ta'minlashda ta'lim xizmatlari sifatini baholashning marketing tadqiqotlarini takomillashtirish yuzasidan olib borgan tadqiqotlarimiz natijasida bir qancha xulosalarga kelingan.

1. Zamonaviy marketing tadqiqotlari va ularning oliy ta'lim xizmatlari sifatini baholash sohasidagi o'ziga xos xususiyatlari tadqiq etildi hamda oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini ta'minlash bilan bog'liq masalalar atroflicha o'rganildi. Raqobatbardoshlik nazariyasida "oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligi" tushunchasi sog'lom raqobat muhitini yaratish tizimi sifatida "raqobatbardoshlik dastagi" atamasini kiritish orqali takomillashtirilgan mualliflik tasnifi taklif etilgan.

2. Oliy ta'lim muassasalari, amaliyot va talabalar o'rtasidagi munosabatlar samaradorligini oshirishda ta'lim va o'qitish sifatini baholashdagi bo'shliqlarni bartaraf etishga ustuvorlik berish asosida "xavfni tahlil etish" axborot tizimi asoslangan.

3. Oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini baholash mexanizmi raqobatbardoshlik dastagini ifodalovchi "muhim raqobatbardoshlik multiplikatori" (KCI) ko'rsatkichlarini ishlab chiqish orqali takomillashtirildi.

4. OTMLlarda raqobatbardoshlikni oshirishda holatni baholovchi uslub

sifatida “raqobatbardoshlik dastagi”ni tashqi resurslardan foydalanish ulushiga ko‘ra “ichki dastak” ($0 \leq CP_{il} \leq 0,3$), “aralash dastak” ($0,4 \leq CP_{ml} \leq 0,6$) va “tashqi dastak” ($0,7 \leq CP_{el} \leq 1,0$) chegara diapazonlarini kiritish orqali toifalash taklifi ishlab chiqildi.

5. Mamlakatimizda oliy ta‘lim xizmatlari bozoridagi talabning 2011-2023 yillardagi dinamikasi qiyosiy tahlili asosida oliy ta‘lim muassasalarining raqobatbardoshligining 2028-yilgacha bo‘lgan prognoz parametrlari ishlab chiqildi.

6. Iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari va ilmiy adabiyotlarni o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, “raqobatbardoshlikni ta‘minlash” tushunchasi turli mualliflar va tadqiqotchilar tomonidan ko‘p marotaba murojaat qilinishiga qaramay, to‘liq o‘rganilmaganligi ilmiy asoslandi. Dissertatsiyada “Oliy ta‘lim muassasasi raqobatbardoshligi” tushunchasini sub‘ektlarning samarali raqobatbardosh harakatlarni amalga oshirish qobiliyati sifatida ko‘rib chiqib, unga “raqobat va global hamkorlikning raqobatbardosh strategiyalarini uyg‘unlashtirgan holda asosiy resurslarning noyob kombinatsiyalarini rivojlantirish orqali raqobatda ishtirok etish jarayonida yetakchi mavqega erishish uchun samarali raqobatbardosh harakatlarni amalga oshirish qobiliyati” deb, ta‘rif berildi.

7. Dissertatsiya ishida O‘zbekiston va Polsha oliy ta‘lim tizimining statistik ma‘lumotlari qiyosiy tahlil asosida tadqiqot olib borilib, OTMlarning rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish imkonini berdi. Dissertatsiyada OTMlarning ta‘lim xizmatlari faoliyatining istiqboliga qaratilgan korporativ ichidagi oliy ta‘lim marketingi modelini tarkibiy tuzilishining mualliflik g‘oyasi yoxud uning “TX-4P-ST” modelining elementlari ishlab chiqildi. Marketing konsepsiyasining OTMlar faoliyati sifatini oshirishga ta‘siri, oliy ta‘lim muassasasi nufuzini shakllantirish marketing elementi sifatida OTM faoliyatini baholash borasida quyidagi xulosalarni qilish mumkin. Birinchidan, xizmatlar bozoridagi har bir faoliyat singari oliy ta‘lim xizmatlarini amalga oshirish marketing tadqiqotlari olib borishga imkon beradigan butun marketing majmuasini yaratishga imkon beradi. Ikkinchidan, mazkur marketing majmuasidan tashkil topgan korporativ ichidagi oliy ta‘lim marketingi oliy ta‘lim muassasadagi barcha bo‘g‘indagi xodimlar o‘z faoliyatlarini iste‘molchi bilan munosabatlarni shakllantirishga yo‘naltiradi.

8. Oliy ta‘lim muassasasi raqobatbardoshligini baholashda asosiy talab etiladigan jihat, uning sifat o‘lchovlarining ilmiy nuqtai nazaridan yetarli darajada aniq va amaliy jihatdan maqbul uslublarining mavjud bo‘lmasligida. Asosiy muammo oliy ta‘lim muassasasi raqobatbardoshligini ta‘minlashda ta‘lim xizmatlari sifatini oshirishning mexanizmini ishlab chiqish bo‘lib qolmoqda. Oliy ta‘lim muassasasi raqobatbardoshligini ta‘minlashda ta‘lim xizmatlari sifatini oshirish mexanizmini ishlab chiqish maqsadida iqtisodchi olimlarning ta‘lim xizmatlari sifatining baholashni ikki guruhga bo‘lishgan bir qator yondashuvlari o‘rganildi va har birining afzal tomonlari, kamchiliklari, bog‘liqliklari va tafovudlari qiyosiy tahlili asosida aniqlandi

9. Oliy ta‘lim raqobatbardoshligini baholashda “muvozanatli ko‘rsatkichlar tizimi” (BSC) g‘oyasiga asoslangan kon‘yukturali, biznes-protsessual va moliyaviy uch darajani o‘z ichiga olgan holda, ta‘lim xizmatlari bozorida oliy ta‘lim muassasasi faoliyati raqobatbardoshligini iqtisodiy va matematik modellashtirish maqsadga muvofiq. Mazkur iqtisodiy-matematik metamodel sifatida ta‘lim

xizmatlari bozorida ishtiroki bo'yicha oliy ta'lim muassasasining faoliyatini baholash va bashorat qilish imkonini beruvchi metamodel taklif etildi.

10. Muallif tomonidan ishlab chiqilgan oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshlik salohiyati muhim raqobatbardoshlik indekatori (KCI) tizimida oliy ta'lim muassasasining raqobatbardoshlik salohiyati insoniy, intellektual, moddiy, texnologik, moliyaviy, axborot resurslari va boshqa ko'rsatkichlarni o'z ichiga olgan bo'lib, muallifning fikricha ekspert usulida to'plangan umumiy ballari etalon bahosi bilan qiyoslash evaziga oliy ta'lim muassasalarini jahon universitetlari tomonidan "Global raqobatbardosh universitet" (Globally competitive university – GCU) maqomiga erishish jarayonida qo'llaniladigan "raqobatbardosh joylashuv" – "raqobatbardoshlik dastagi" raqobatbardoshlik joylashuv matritsasining (CPM) tashqi resurslardan foydalanish ulishiga nisbatan – ichki dastak (Internal Lever); aralash dastak (Mixed Lever); tashqi dastak (External Lever) mezonlarga tabaqalashtirish asosida raqobatbardoshlik marketing strategiyalarini qabul qilishning ishlab chiqish ta'lim sifatini yaxshilashga va raqobatbardoshlikni ta'minlashga ta'siri yuqoridir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD. 03/05.05.2023.I. 72.05
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
БУХАРСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ДАВЛАТОВ СУХРОБ САЙИТЖОНОВИЧ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
ОЦЕНКИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ОБЕСПЕЧЕНИИ
КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ**

08.00.11– Маркетинг

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Бухара – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам зарегистрирована под номером B2023.3.PhD/Iqt3314 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан

Диссертация выполнена в Бухарском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Бухарского государственного университета (www.buxdu.uz) «Ziyonet» (www.Ziyonet.uz)

Научный руководитель: Хамидов Обиджон Хафизович
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: Низомов Аслиддин Бадриддинович
доктор экономических наук, профессор

Аминова Мақсуда Саминовна
доктор философии по экономическим наукам (PhD),
доцент

Ведущая организация: Самаркандский государственный университет
имени Шарофа Рашидова

Защита диссертации состоится « 27 » « марта » 2024 года в 15-00 часов на заседании Научного совета PhD.03/05.05.2023.1.72.05. Бухарском государственном университете (адрес: 200117, город Бухара, улица М. Икбол, дом № 11. Тел.: (998 65) 221-29-14; факс: (998 65) 221-27-07, email: buxdu_rektor@buxdu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Бухарского государственного университета (зарегистрирована за № 416). Адрес: 200117, город Бухара, улица М. Икбол, дом № 11. Тел.: (998 65) 221-25-87, e-mail: buxdu_arm@uzmail.uz

Автореферат диссертации разослан « 11 » « марта » 2024 года
(Протокол-реестр рассылки № 1 от « 11 » « марта » 2024 года)



Б.Н.Навруз-Зода
Заместитель председателя научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

Д.Ш. Явмутов
Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, кандидат экономических наук, доцент

А.О. Очилов
Заместитель председателя научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В целях обеспечения конкурентоспособности высших учебных заведений одно из ведущих мест занимает учет мнения работодателей, международная конкурентоспособность, оценка уровня удовлетворенности студентов, использование маркетинговых исследований в оценке качества образования. В мировом масштабе «человеческий капитал» составляет 64,0% национального богатства. Этот показатель составляет 70,0% в странах с высоким уровнем дохода, 58,0% в странах со средним уровнем дохода и 41% в странах с низким уровнем дохода, которые являются членами Организации экономического сотрудничества и развития (ИЭРТ). Концепция ООН «Цели устойчивого развития до 2030 года» предусмотрена «реализация механизмов совершенствования процесса и инструментов оценки качества системы образования»¹ призывает к осуществлению маркетинговых исследований в оценке качества образования с точки зрения его определения как неотложной задачи. В связи с этим эффективное использование и совершенствование маркетинговых исследований оценки качества образования имеют важное значение в деле обеспечения конкурентоспособности высших учебных заведений в атмосфере конкурентной борьбы между высшими учебными заведениями и практики проведения топ-рейтингов.

В ведущих высших учебных заведениях мира проводятся научно-исследовательские работы, направленные на развитие маркетинговых услуг, оценку качества образования, формирование новых образовательных моделей, адаптацию деятельности высших учебных заведений к требованиям рынка. В связи с этим приоритетными становятся вопросы создания глобальной рыночной среды образовательных услуг, повышения уровня конкурентоспособности высших учебных заведений, повышения научного потенциала преподавателей, внедрения современных маркетинговых исследований в высших учебных заведениях, разработки маркетинговых исследований, направленных на оценку качества и конкурентоспособности образования и увеличение их эффективности.

В нашей республике достигаются результаты по реализации комплексных мер по реформированию управления в сфере высшего образования, включая определение рейтинга высших учебных заведений, повышение качества образования, целенаправленную подготовку потенциальных вузов к вхождению в международные рейтинги QS и THE. В частности, в рамках четвертого приоритетного направления Стратегии развития нового Узбекистана до 2026 года определены важные задачи по формированию системы высшего образования, обладающей глобальной конкурентоспособностью путем «...доведения уровня охвата высшим образованием до 50 процентов и повышения качества образования, целевой подготовки 10 потенциальных высших образовательных учреждений для включения в международные рейтинги QS и THE»². При реализации этих

¹ Концепция ООН устойчивого развития до 2030 года. <https://www.un.org/en/conferences/SDGSummit2023>

² Указ №УП-60 от 28.01.2022 г. «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» (раздел IV, задачи 46-47) // www.lex.uz

задач, в частности, важным является разработка научно обоснованных предложений и рекомендаций по механизму оценки конкурентоспособности высших учебных заведений на основе использования в деятельности высших учебных заведений «ключевых показателей конкурентоспособности» (КСИ) и показателей качества образовательных услуг, которые формируют статус «глобально конкурентоспособного университета» (GCU).

Данное диссертационное исследование в определённой степени служит реализации задач, поставленных в Указах Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года №УП-158 «О Стратегии Узбекистана – 2030», от 28 февраля 2023 года №УП-27 «О государственной программе по реализации стратегии развития нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы в «Год заботы о человеке и качественного образования»», от 29 января 2022 года № УП-60 «О новой стратегии развития Узбекистана на 2022-2026 годы», от 11 июля 2019 года УП-5763 «О мерах по внедрению новых принципов управления в системе высшего и среднего специального образования», от 8 октября 2019 года УП-5847 «Концепция развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года об утверждении», Постановление Президента Республики Узбекистан от 24 декабря 2021 года № ПП-60 «О дополнительных мерах по обеспечению академической и организационно-управленческой самостоятельности государственных высших образовательных учреждений», от 5 июня 2018 года № ПП-3775 «О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах», Постановление Кабинета Министров Министра Республики Узбекистан от 7 июня 2019 года № 467 «О мерах по совершенствованию порядка определения рейтинга высших учебных заведений», а также в других нормативно-правовых документах, регулирующих сферу высшего образования.

Соответствие исследования по приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. В зарубежных странах практика роли образования в экономике, основные факторы конкурентоспособности образовательных учреждений изучались многими учеными и исследователями в своих фундаментальных трудах. В частности, освещены в научных исследованиях таких учёных, как М.Э.Портер, Ю.В.Ривкин, Т.Страйк, Дж.Тейлор, А.Парасураман, В.А.Зейтхамл, Л.Л.Берри, К.К.Тан, С.В.Кек³ и других.

